

**TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA KROSS ROSS-308  
PARRANDALARINING KOLIBAKTERIOZ KASALLIGI TASNIFI.**

**Vohidova D.S.** – ToshDAU “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrası professori,

**Boltayev F.Yo’.** – ToshDAU “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrası assistenti,

**Ergashev A.A.** – ToshDAU “Hayvonlarga tashxis qo’yish va davolash” yo’nalishi magistranti.

**Annotatsiya.** Maqolada parrandalarda uchraydigan kolibakterioz kasalligining tasnifi to’g’risidagi adabiyot ma’lumotlar keltirilgan. Kolibakterioz kasalligining surunkali kechishi, uzoq vaqt davom etishi parranda go’shti va tuxum etishtirilishini salohiyatini tushurib yuboradi. Parrandachilik xo’jaliklarida kasallikning bunday davom etishi va kechishi natijasida xo’jalik iqtisodiyotiga, etishtirilayotgan mahsulotlar sifati va miqdoriga hamda iqtisodiy ko’rsatgichlariga salbiy ta’sir qilmoqda.

**Kalit so’zlar.** Parrandachilik, kolibakterioz, E-coli, koli infeksiya, aerosakkulit, salpingit, infeksiya, immunitet, Escherichia coli, patogen, shtamm, septitsemiya, pnevmoniya, enterit, diareya, inkubatsiya, kolonizatsiya, fimbriya, ekzotoksin, enterotok, shigatoksin.

**CLASSIFICATION OF COLIBACTERIOSIS OF ROSS-308  
CROSSBRED POULTRY IN CONDITIONS OF TASHKENT REGION.**

*Vahidova D.S. - Professor of the "General zootechnics and veterinary"  
department of TashSAU,*

*Boltayev F. Y. - Assistant of the "General zootechnics and veterinary"  
department of TashSAU,*

*Ergashev A.A. - Master's student of TashSAU "Diagnosis and treatment of animals".*

**Annotation.** The article presents literature information on the classification of colibacteriosis in poultry. The chronic course of colibacillosis, its long-term course, inhibits the potential for the reproduction of poultry meat and eggs. As a result of this continuation and course of the disease on poultry farms, it has a negative impact on the economy of the farm, the quality and quantity of the products grown, as well as on economic indicators.

**Key words.** Poultry, colibacteriosis, E-coli, coli infection, aerosacculitis, salpingitis, infection, immunity, Escherichia coli, pathogen, strain, septicemia, pneumonia, enteritis, diarrhea, incubation, colonization, fimbria, exotoxin, enterotoc, shigatoxin.

**Kirish.** O'zbekiston hukumati parrandachilik sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda va bu yo'nalishda bir qancha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli, parrandachilik mahsulotlari, xususan, tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarish hajmi oshgan. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra chorvachilik sohasida etishtirilayotgan mahsulotlarning 25-30 % ini sohaning muhim tarmog'i sanalgan parrandachilikdan olinadigan go'sht va tuxum mahsulotlari tashkil etadi. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi, ichki bozor talabi va eksport salohiyatini ta'minlash borasida tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Birgina aholining parranda go'shti va tuxumiga bo'lgan iste'mol talabi soha mutaxassislarini sifatli tovuq go'shti va tuxum etishtirish uchun mahsuldor liniyalar ko'lamini kengaytirish va yaratish hamda veterinariya – sanitariya tadbirlarini tashkil etish, profilaktika va kasalliklarni bartaraf etishning samarali yechimlarini qo'llashni talab qiladi. Bugungi kunda sifatli parranda go'shti va tuxum etishtiruvchi tadbirkorlarni

qiyinayotgan parrandalarning kolibakterioz kasalligining salbiy oqibatlari ta'sirida ijtimoiy va iqtisodiy zararlar vujudga kelmoqda.

**Asosiy qism.** Kasallikning sabablari va omillari: Kolibakteriozning rivojlanishi parranda xo'jaliklaridagi gigiena sharoitlarining yetarli darajada emasligi, zich joylashtirilgan parrandalar, toza suv va sifatli ozuqa yetishmasligi kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, boshqa infeksiyalar yoki immunitetning susayishi kolibakteriozning rivojlanishini osonlashtiradi.

Kolibakterioz kasalligi, asosan, *Escherichia coli* (*E. coli*) bakteriyasi tomonidan qo'zg'atiladi va turli hayvonlarda, jumladan, parrandalarda uchraydi. Kasallikning tasnifi, klinik va patologik belgilariga, shuningdek, kasallikning o'tkir yoki surunkali kechishiga asoslanadi. Kolibakteriozda yuqori patogen shtammlar bilan zararlangan o'tkir kolibakterioz tez rivojlanadi va hayvonlarning umumiy holatining keskin yomonlashuvi bilan xarakterlanadi. O'tkir shakl ko'pincha septitsemiya va poliorgan yallig'lanish bilan kechadi. Surunkali kolibakterioz asta-sekin rivojlanadi va uzoq davom etadi. Surunkali shaklda, odatda, bronxit yoki pnevmoniya kabi nafas olish tizimi kasalliklari, shuningdek, enterit, nafas olish tizimini zararlaydi va pnevmoniya yoki aerosakulit chaqiradi. Bakteriya ichakni zararlaydi va enteritga olib keladi, bunda diareya va ozuqa hazm qilishda muammolar kuzatiladi. Tuxum ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi va tuxum ishlab chiqarish hajmining pasayishiga olib kelishi mumkin. Mushaklar va bo'g'imlar zararlanganda shish, og'riq va yurganda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bakteriyalar qon orqali butun organizmga tarqalib, septitsemiya chaqiradi. Bu o'ta xavfli bo'lib, ko'pincha o'lim bilan yakunlanadi. Kolibakterioz parrandalarda tuxum ichidagi embrionlarning rivojlanish jarayonida ham uchraydi. Infeksiya inkubatsiya jarayonida yoki tuxumdan chiqish vaqtida jo'jalarni zararlaydi. Bu holat inkubatsiya muvaffaqiyatsizligi va tuxumdan chiqqan jo'jalarning yuqori o'limiga olib keladi.

Kolibakteriozning yuqoridagi kasalliklari tana haroratining ko'tarilishi, depressiya, ishtahaning yo'qolishi, nafas olishda qiyinchiliklar va o'lim

darajasining yuqori bo'lishi, jo'jalar o'sishining sekinlashishi, ozuqa iste'molining kamayishi, umumiy zaiflik va turli organlarda yallig'lanish jarayonlarning vujudga kelishi bilan kechadi.

**Kolibakterioz patogenez:** *Yopishish va kolonizatsiya:* E. coli bakteriyalari hayvon organizmiga tushganidan so'ng ichak devorlariga yopishib oladi. Bunda bakteriyaning pili yoki fimbriyalar deb ataladigan maxsus strukturasi yordam beradi. Bakteriyalar ichak shilliq qavatida kolonizatsiya qilib, ko'payishni boshlaydi.

*Ekzotoksinlar ishlab chiqarish:* E. coli bakteriyalari turli ekzotoksinlar ishlab chiqarishi mumkin, masalan, enterotoksinlar va shigatoksinlar. Enterotoksinlar ichak epiteliyasining ion transportiga ta'sir qilib, suv va elektrolitlarning ichakka ajralishini oshiradi, bu esa diareyaga olib keladi. Shigatoksinlar esa epiteliyal hujayralarga zarar yetkazib, ularning o'limiga sabab bo'ladi, bu esa ichak devorining buzilishiga olib keladi.

*Ichak devorining buzilishi va yallig'lanish:* bakteriyalarning ko'payishi va toksinlarining ajralishi natijasida ichak devorida yallig'lanish jarayoni boshlanadi. Ichakning shilliq qavati shikastlanib, qon tomirlari orqali toksinlar va bakteriyalar sistematik ravishda tarqalishi mumkin. Bu bakteremiya va septikemiya kabi og'ir holatlarga olib kelishi mumkin.

*Organizmning javobi:* organizm E. coli infeksiyasiga qarshi immun javob qaytaradi, bu esa o'z navbatida yallig'lanishni kuchaytirishi mumkin. Agar immun tizimi kuchli bo'lsa, infeksiya lokalizatsiya qilinadi va tiklanish jarayoni boshlanadi. Ammo immun tizimi zaif bo'lsa yoki infeksiya og'ir bo'lsa, kasallikning o'lim bilan tugashi mumkin.



## **Fibrinli aerosakkulit**

## **Jigarda perigepatitlar**

**Oldini olish va davolash - Profilaktika:** Kolibakteriozning oldini olishda tashkiliy xo'jalik, zootexnik, zoogigiyenik tadbirlardan iborat kurash kompleksi bajariladi. Xo'jalikda o'stirilayotgan jo'jalarni dezinfeksiyalangan binolarda, zoogigiyenik normativ qoidalarga asoslangan holda oqsil, vitamanga boy, to'liq sifatli ozuqalar bilan oziqlantirish zarur. Yaxshi gigiena sharoitlarini saqlash, sifatli ozuqa va toza suv bilan ta'minlash, vaktsinatsiya o'tkazish kolibakteriozning oldini olish uchun muhim hisoblanadi. *Antibiotiklar bilan davolash:* Kasallik yuzaga kelgan hollarda veterinariya shifokori tomonidan tasdiqlangan antibiotiklardan foydalanish kerak. Antibiotiklar mikroorganizmlarning rezistentligi (qarshilik) hosil qilishiga olib kelmasligi uchun to'g'ri va me'yorida qo'llanishi zarur.

**Xulosa.** Kolibakterioz kasalligi o'zining klinik ko'rinishlariga qarab turli shakllarda tasniflanadi. Har bir shakl uchun davolash va profilaktika choralari, kasallikning og'irligiga, bakterianing virulentligiga va hayvonlarning immunitet holatiga bog'liq holda o'zgaradi. Kasallikni to'g'ri tashxislash va davolash usullarini qo'llash uning oqibatlarini kamaytirish va oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. J.Shopo'latov. Veterinariya asoslari. Toshkent "Mehnat" 1993.
2. M.Ahmedov, A.Xasanov, R.Hakimov. O'zbekiston parrandachilari uchun qo'llanma. "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent 1968.
3. Allan BJ, van den Hurk JV, Potter AA. Characterization of *Escherichia coli* isolated from cases of avian colibacillosis. Can J vet.